

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA ULUSH O'TISHINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI: ROMANO-GERMAN VA ANGLO-SAKSON HUQUQ TIZIMLARI MISOLIDA

Choriyev Xusan Rustam o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti Va Diplomatiya Universiteti

Xalqaro biznes huquqi fakulteti

Fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquq fanlari kafedrası.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21128377>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) ustav fondidagi ulushning boshqa shaxslarga o'tishini tartibga soluvchi huquqiy modellar ikki yetakchi huquq tizimi — Romano-German (kontinental) va Anglo-sakson (umumiy huquq) tizimlari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Germaniya, Fransiya va Ruminiyaning kodifikatsiyalashgan yondashuvi Buyuk Britaniya va boshqa umumiy huquq davlatlarining shartnomaviy erkinlikka asoslangan moslashuvchan modeli bilan solishtiriladi. Alohida e'tibor ulushni uchinchi shaxslarga o'tishida jamiyat organlarining roli, imtiyozli sotib olish huquqining amalga oshirilish tartibi, ulush o'tishini rasmiylashtirish shakllari va davlat reyestrída qayd etish mexanizmlariga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki tizim o'rtasidagi farqlar huquqiy me'yorlarning mavjudligida emas, balki ularning amaliyotda qo'llanish darajasi va institutsional ta'minotida namoyon bo'ladi. Maqola yakunida O'zbekiston milliy qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha har ikki tizimning ijobiy jihatlari uy'ulashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mas'uliyati cheklangan jamiyat, ulush o'tkazish, Romano-German huquq tizimi, Anglo-sakson huquq tizimi, imtiyozli sotib olish huquqi, korporativ boshqaruv, qiyosiy huquqshunoslik.

Abstract. This article presents a comparative legal analysis of the models governing the transfer of a participatory share in the charter capital of a limited liability company (LLC) under two leading legal traditions — the Romano-Germanic (civil law) and the Anglo-Saxon (common law) systems. The study compares the codified approach found in Germany, France and Romania with the more flexible, contract-based model characteristic of the United Kingdom and other common-law jurisdictions. Particular attention is paid to the role of corporate bodies in approving the transfer of shares to third parties, the mechanics of exercising pre-emptive purchase rights, the formal requirements for documenting a transfer, and registration in the relevant state or corporate registers. The findings suggest that the divergence between the two systems lies less in the existence of legal norms than in the degree to which those norms are operationalised and institutionally supported. The article concludes with recommendations for reforming Uzbek legislation by combining favourable elements of both traditions.

KIRISH

Mas'uliyati cheklangan jamiyat tashkiliy-huquqiy shakli dunyo bo'yicha tadbirkorlikning eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Bu shaklning ommabopligi ishtirokchilarning cheklangan javobgarligi, boshqaruv tizimining nisbatan soddaligi hamda ulush orqali mulkiy va korporativ huquqlarni amalga oshirish imkoniyati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ulushning bir shaxsdan boshqasiga o'tishi — sotish, hadya qilish, meros qilib o'tkazish yoki sud qarori asosida undirish orqali bo'lsin — korporativ huquqning eng murakkab va amaliyotda ko'p bahsli institutlaridan biri sifatida qolmoqda.

Dunyo huquq tizimlari ulush o'tishi masalasini turlicha yondashuvlar asosida tartibga soladi. Romano-German huquq tizimiga mansub davlatlarda — bunga Germaniya, Fransiya va Ruminiyani misol qilish mumkin — ulush o'tishi kodifikatsiyalashgan qonunchilik, ya'ni fuqarolik kodeksi va maxsus korporativ qonunlar orqali batafsil tartibga solinadi. Bu yondashuv huquqiy aniqlik va oldindan aytish imkoniyatini ta'minlaydi. Anglo-sakson huquq tizimida, aksincha, qonunchilik faqat umumiy doirani belgilab beradi, konkret tartiblar esa ko'p hollarda kompaniya ustavi (Articles of Association) yoki ishtirokchilar o'rtasidagi kelishuv (shareholders' agreement) orqali belgilanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — ikki huquq tizimidagi ulush o'tishi modellarini qiyosiy tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda O'zbekiston milliy qonunchiligini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot predmetiga ulush o'tishining huquqiy tabiati, jamiyat organlarining roli, imtiyozli sotib olish huquqi va ulush o'tishini rasmiylashtirish tartib-taomillari kiritilgan.

I. ROMANO-GERMAN HUQUQ TIZIMIDA ULUSH O'TISHINING TARTIBGA SOLINISHI

Romano-German huquq tizimi, ya'ni kontinental huquq tizimi, tarixan Rim huquqi negizida shakllangan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida — jumladan Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Ruminiyada — qo'llaniladi. Ushbu tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki, huquqiy munosabatlar asosan kodifikatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi, sud amaliyoti esa ikkinchi darajali manba sifatida xizmat qiladi.

Germaniya qonunchiligida mas'uliyati cheklangan jamiyat (GmbH) ulushlarini o'tish jarayoni ayniqsa qat'iy tartibga solingan bo'lib, Germaniya huquqiga ko'ra, ulushni boshqa shaxsga o'tishi faqat notarial tasdiqlangan bitim asosida amalga oshirilishi mumkin — bu talab huquqiy aniqlikni ta'minlash va kelajakdagi nizolarning oldini olishga qaratilgan. Bundan tashqari, jamiyat ustavida ulushni uchinchi shaxsga o'tishi uchun jamiyatning roziligini talab qilish nazarda tutilishi mumkin, bu esa jamiyat tarkibini nazorat qilish imkonini beradi.

Fransiya qonunchiligida mas'uliyati cheklangan jamiyat (SARL) ulushlarini o'tish tartibi ham aniq belgilangan. Agar ulush uchinchi shaxsga o'tkazilayotgan bo'lsa, jamiyat ishtirokchilarining roziligi talab etiladi, bunday rozilik odatda umumiy yig'ilish orqali beriladi.

Bu mexanizm jamiyat ichidagi muvozanatni saqlashga xizmat qilish bilan birga, ishtirokchilarga o'zaro kelishuv asosida qo'shimcha shartlarni belgilash imkoniyatini ham beradi.

Ruminiya tajribasi: fiskal nazorat elementi

Qiyosiy tahlil doirasida Ruminiya tajribasi alohida e'tiborga loyiqdir, chunki bu davlat ulush o'tishini fiskal intizom bilan bog'lash bo'yicha o'ziga xos yondashuvni shakllantirgan.

Agar jamiyat ulushining o'tishi natijasida kompaniya ustidan nazorat o'zgaradigan bo'lsa, bunday bitim faqat soliq organlari uchun belgilangan shartlar bajarilgandagina huquqiy kuchga ega bo'ladi. Bunga, jumladan, ulush o'tganligi haqida soliq organlariga belgilangan muddat ichida xabar berish hamda jamiyatning davlat byudjeti oldidagi qarzlari mavjud bo'lsa, ularni qoplash bo'yicha kafolat taqdim etish kiradi. Mazkur mexanizm fiskal intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi va soliq to'lovidan bo'yin tovlash maqsadida ulush o'tishdan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Uchta davlat tajribasini umumlashtirar ekanmiz, Romano-German tizimiga xos uchta umumiy xususiyatni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, ulush o'tishi har doim fuqarolik-huquqiy bitim shaklida rasmiylashtiriladi; ikkinchidan, jamiyat ishtirokchilarining manfaatlarini

himoya qilish maqsadida turli darajadagi korporativ cheklovlar qo'llaniladi; uchinchi, ulush o'tishi notarial tasdiq yoki rasmiy ro'yxatga olish bilan bog'liq bo'lib, bu huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Romano-German davlatlari bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar

Mezon	Germaniya (GmbH)	Fransiya (SARL)	Ruminiya
Bitim shakli	Notarial tasdiq majburiy	Yozma shakl, ayrim hollarda tasdiq	Yozma bitim + davlat organiga xabar
Jamiyat roziligi	Ustavga ko'ra talab etilishi mumkin	Umumiy yig'ilish roziligi talab etiladi	Soliq qarzi mavjud bo'lsa kafolat talab etiladi
Asosiy nazorat predmeti	Notarial organ	Ishtirokchilar yig'ilishi	Soliq organlari
Ustunlik jihati	Yuqori huquqiy aniqlik	Ishtirokchilar manfaatining muvozanati	Fiskal intizom va shaffoflik

1-jadval. Romano-German huquq tizimiga mansub davlatlarda ulush o'tishi tartibi

II. ANGLO-SAKSON HUQUQ TIZIMIDA ULUSH O'TISHINING TARTIBGA SOLINISHI

Anglo-sakson huquq tizimi, yoki umumiy huquq (common law) tizimi, Romano-German tizimidan farqli o'laroq, asosan sud precedenti va sud amaliyotiga tayanadi. Ushbu tizimga mansub davlatlar qatoriga Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Avstraliya kiradi. Tizimning yana bir muhim xususiyati shartnomaviy erkinlik tamoyiliga katta ahamiyat berilishidir — bu esa kompaniya ishtirokchilariga o'zaro kelishuv asosida ko'plab masalalarni mustaqil tartibga solish imkoniyatini beradi.

Buyuk Britaniyada xo'jalik jamiyatlari faoliyati, jumladan ulush (share) o'tishi, asosan Companies Act 2006 qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunga ko'ra, ulushni boshqa shaxsga o'tishi jarayoni faqat tegishli hujjatlar rasmiylashtirilganidan va jamiyat reyestrda yangi egasi ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin huquqiy kuchga ega bo'ladi. Ulushning huquqiy egasi faqatgina kompaniyaning ishtirokchilar reyestriga kiritilgan shaxs hisoblanadi.

Direktorlar kengashining roli va vakolatlari

Anglo-sakson tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ulushni uchinchi shaxslarga o'tishi ko'pincha kompaniya direktorlar kengashining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Direktorlar kengashi kompaniya manfaatlarini himoya qilish maqsadida ulush o'tishi jarayonini tasdiqlashi yoki ayrim hollarda rad etishi mumkin. Companies Act 2006 ning 771-moddasiga ko'ra, agar direktorlar kengashi ulush o'tishini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortsa, ular ariza beruvchi shaxsga sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar berishi shart, bunda kompaniya ariza kelib tushganidan keyin ikki oy ichida uni ro'yxatdan o'tkazishi yoki rad etish sabablarini bildirishi lozim. Aks holda, bunday rad etish sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Ulushni hujjatlashtirish bo'yicha Buyuk Britaniya amaliyotida stock transfer form deb ataluvchi maxsus hujjat qo'llaniladi. Ushbu hujjatda ulushni o'tkazayotgan shaxs (transferor), ulushni qabul qilayotgan shaxs (transferee), ulush miqdori hamda bitim qiymati ko'rsatiladi.

Hujjat imzolanganidan so'ng kompaniyaga taqdim etiladi va ulush o'tish jarayoni kompaniya tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi, so'ngra tegishli ma'lumotlar Companies House — kompaniyalar reyestri organi — bazasida yangilanadi.

Anglo-sakson huquq tizimida ham imtiyozli sotib olish huquqi (pre-emption right) instituti keng qo'llaniladi. Mazkur mexanizmga ko'ra, kompaniya ishtirokchisi o'z ulushini sotmoqchi bo'lgan taqdirda, avvalo ushbu ulushni boshqa ishtirokchilarga taklif qilishi kerak.

Faqatgina ular ushbu huquqdan foydalanmagan taqdirdagina ulush uchinchi shaxslarga o'tishi mumkin. Biroq, Romano-German tizimidan farqli o'laroq, bu huquq ko'pincha qonun darajasida emas, balki kompaniya ustavi yoki ishtirokchilar kelishuvi orqali belgilanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Anglo-sakson tizimida ulush o'tishi erkinligi prinsip sifatida tan olingan bo'lsa-da, bu erkinlik mutlaq emas. Kichik xususiy kompaniyalarda ko'pincha barcha ishtirokchilarning roziligi talab qilinishi yoki ulush faqat jamiyat a'zolari o'rtasida o'tkazilishi nazarda tutilishi mumkin — bu choralar sheriklikka o'xshash boshqaruv modelini saqlashga xizmat qiladi.

Quyidagi chizmada Buyuk Britaniya amaliyotida ulush o'tishining bosqichma-bosqich tartibi keltirilgan:



Manba: Companies Act 2006, 771-moddasi asosida muallif tomonidan tuzilgan

III. IKKI TIZIMNING QIYOSIY TAHLILI

Romano-German va Anglo-sakson huquq tizimlarini bir necha asosiy mezon bo'yicha qiyoslash ikki yondashuv o'rtasidagi tub farqlarni va ularni birlashtiruvchi umumiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Mezon	Romano-German tizimi	Anglo-sakson tizimi
Asosiy manba	Kodifikatsiyalashgan qonunchilik (FK, korporativ qonunlar)	Qonunchilik + sud precedenti + kompaniya hujjatlari
Bitim shakli	Ko'pincha notarial tasdiq talab etiladi	Stock transfer form, notarial tasdiq shart emas
Jamiyat organining roli	Ishtirokchilar yig'ilishi roziligi	Direktorlar kengashi roziligi yoki rad etish vakolati
Imtiyozli huquqning manbai	Asosan qonun darajasida belgilanadi	Asosan ustav yoki ishtirokchilar kelishuvida belgilanadi
Tartibga solish	Davlat nazorati nisbatan kuchli	Korporativ avtonomiya va shartnomaviy erkinlik

2-jadval. Romano-German va Anglo-sakson tizimlarining qiyosiy jadvali

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki tizim o‘rtasidagi asosiy farq tartibga solishda namoyon bo‘ladi. Romano-German tizimi huquqiy aniqlik va protsessual kafolatlarni ustun qo‘yadi, bu esa korporativ munosabatlarning barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Anglo-sakson tizimi esa moslashuvchanlik va shartnomaviy erkinlikka ustunlik beradi, bu esa iqtisodiy muomalaning tezkorligini va tadbirkorlik erkinligini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, ikki tizimni birlashtiruvchi umumiy jihat ham mavjud: ham Romano-German, ham Anglo-sakson tizimlarida ulushning erkin muomalada bo‘lishi prinsipi tan olinadi, biroq jamiyat barqarorligini ta‘minlash maqsadida muayyan cheklovlar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston qonunchiligining o‘rni

O‘zbekiston Respublikasida mas‘uliyati cheklangan jamiyat ulushi o‘tishini tartibga soluvchi normalar ko‘proq Romano-German huquq an‘analari ta‘sirida shakllangan. Xususan, ulushni uchinchi shaxslarga o‘tishida imtiyozli sotib olish huquqining qonun darajasida mavjudligi, jamiyat ustavida qo‘shimcha cheklovlar nazarda tutilishi mumkinligi va ulushning haqiqiy qiymatini aniqlash tartibi kontinental huquq tizimiga xos yondashuvlarni aks ettiradi.

Biroq amaliyotda ushbu normalarning ijro etilish mexanizmlari Germaniya yoki Fransiyadagidek institutsional ta‘minotga to‘liq ega emas.

IV. MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR

Ikki huquq tizimining qiyosiy tahlili asosida O‘zbekiston Respublikasida MChJ ulushi o‘tishini tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, Germaniya tajribasidan kelib chiqib, yuqori qiymatdagi ulush o‘tish bitimlari uchun notarial tasdiqni majburiy tartibda belgilash, bu esa bitimning haqiqiylikini ta‘minlash va kelajakdagi nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Buyuk Britaniya tajribasidagi kabi, jamiyat ulush o‘tishni rad etgan taqdirda muayyan muddat ichida (masalan, ikki oy ichida) yozma ravishda asoslantirilgan javob berish majburiyatini joriy etish, bu esa shaffoflikni oshiradi.

Uchinchidan, ishtirokchilarga ustavda imtiyozli sotib olish huquqini qonunda belgilangan minimal kafolatlardan kelib chiqib qo‘shimcha shartlar bilan boyitish imkoniyatini berish, ya‘ni Anglo-sakson tizimidagi moslashuvchanlik unsurini kiritish.

To‘rtinchidan, Ruminiya tajribasiga asoslanib, nazorat ulushi o‘zgarganda yoki yirik korporativ o‘zgarish yuz berganda, davlat reyestri yoki soliq organlarini xabardor qilish majburiyatini aniqroq belgilash, bu esa fiskal shaffoflikni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, ulushni rasmiylashtirishning yagona standartlashtirilgan hujjat shaklini (Buyuk Britaniyadagi stock transfer form andozasida) ishlab chiqish, bu esa ulush o‘tish bitimlarini soddalashtirishga yordam beradi.

XULOSA

O‘tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadi: mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarda ulush o‘tishini tartibga solishda yagona universal model mavjud emas. Romano-German tizimi huquqiy aniqlik va protsessual kafolatlarni, Anglo-sakson tizimi esa moslashuvchanlik va shartnomaviy erkinlikni ustun qo‘yadi. Har bir model o‘zining huquqiy an‘analari, iqtisodiy rivojlanish darajasi va korporativ boshqaruv xususiyatlaridan kelib chiqib shakllangan bo‘lib, o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega.

O‘zbekiston Respublikasi uchun ikki tizimning ijobiy jihatlarini uyg‘unlashtirish — ya‘ni Romano-German tizimidagi huquqiy aniqlik va kafolatlarni saqlab qolgan holda, Anglo-sakson tizimidagi moslashuvchanlik unsurlarini joriy etish — milliy korporativ huquqni rivojlantirishning maqbul yo‘nalishi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bu, o'z navbatida, korporativ nizolar sonini kamaytirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va biznes muhitining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni. — <https://lex.uz/docs/-22525>
3. Companies Act 2006 (United Kingdom). — <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/contents>
4. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB) hamda GmbH-Gesetz (Germaniya). — https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gmbhg/englisch_gmbhg.html
5. Davies, P. & Worthington, S. Gower's Principles of Modern Company Law. — Sweet & Maxwell, 2016.
6. Kershaw, D. Company Law in Context. — Oxford University Press, 2012.
7. Hannigan, B. Company Law. — Oxford University Press, 2018.
8. The Law Student Blog. Maintenance of Share Capital and Transfer of Shares. — <https://thelawstudent.blog/maintenance-of-share-capital-and-transfer-of-shares>
9. The Company Law Club. Transferring Shares. — <https://www.companylawclub.co.uk/transferring-shares>